

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘U SAN‘ATI TARIXI

Xolmirzaev Otamurod Eshmirza o‘g‘li,
Jizzax davlat instituti Musiqa madaniyati
fakulteti, Vokal va cholg‘u ijrochiligi
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘zbek xalq cholg‘ulari uzoq o‘tmishda paydo bo‘lgan. Ma’lumotlarga qaraganda dastlabki musiqa cholg‘ulari eramizdan avvalgi 13 ming yillikda yaratilgan deb taxmin qilinadi. Dastlab urma zarbli cholg‘ular paydo bo‘lgan. Chunki eng qadimgi mehnat qo‘shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog‘liq.

Kalit so‘zlar: Cholg‘u, tarix, allomalar, asarlar, g‘ijjak, nay, doira.

O‘zbek milliy cholg‘uchilik san‘ati tarixiy zarvaraqlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz uning sahifalari naqadar qadimiy va rang-barangligini guvoh bo‘lamiz. Ayni paytda uni juda sermazmun ekanligini anglashimiz mumkin. Zero, diyorimizda tarbiyalanib voyaga yetgan buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr al-Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Beruniy, Umar Xayyom, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi allomalar nafaqat Markaziy Osiyo xalqlari musiqa madaniyati, balki jahon sivilizatsiyasiga ulkan xissa qo‘shgan allomalardir. O‘zbek musiqa madaniyati bilan bevosita shug‘ullangan ko‘pgina olimlar cholg‘uchilik san‘ati tarixiga oid turli fikrlarni bildirganlar. Nima bo‘lganda ham bugun aytishimiz lozimki, Markaziy Osiyo xududida, xususan O‘zbekistonda cholg‘ularni turfa xillari va sozandalik san‘ati bizga eng qadimiy merosdir.

Xalq cholg‘ulari uzoq o‘tmishda paydo bo‘lgan. Ma’lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqa cholg‘ulari eramizdan avvalgi 13 ming yillikda yaratilgan deb taxmin qilinadi. Dastlab urma zarbli cholg‘ular paydo bo‘lgan. Chunki eng qadimgi mehnat qo‘shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog‘liq.

Keyinchalik shovqinli cholg‘ular paydo bo‘lgan. Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta’kidlaganlar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o‘ziga xos, takrorlanmas, go‘zal xolatni vujudga keltirar edi.

Keyinroq xalq ustalari tomonidan qamish yoki bambuk poyasidan surnay, xushtak va nihoyat naylar yasaldi. Vaqt o'tishi bilan u cholg'ular yanada takomillashdi. Keyinchalik torli muzrob va torli kamonlik musiqa cholg'ulari paydo bo'ldi. Ulardan saroy ayonlarining marosimlarida, harbiy yurishlarda foydalanildi.

Qadimgi Sharq madaniyati quchog'ida o'zbek xalq cholg'ulari shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarni saqlab qoldi. O'ziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qobuzlar an'anaviy shakllarda bizga yetib keldi.

Samarqand shahri muzeylaridan birida qadimiy nay cholg'usi besh ming yil avval yaratilganligi barchamizga ma'lum.

Uzoq o'tmishdagi musiqa madaniyatimiz va sozandalik san'atining yuksak darajaga erishgan davrlardan guvohlik beruvchi bu noyob va go'zal nay eramizdan uch ming yil avval cho'ponlar qo'lidami, yoki ustoz va afsonaviy naychi sozandalar qo'lidami, qanchadan-qancha tinglovchilar qalbini rom etgan.

Quldorlik tuzimi davrida Maroqand, Niso, Tuproqa'la, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar xududida olib borilgan qazilma ishlari chog'ida turli cholg'ularning tasvirlari aks etgan badiiy xunarmandchilik buyumlari topildi. Quldorchilik jamiyati O'rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo'ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalish bilan birgalikda cholg'ular ham takomillashdi.

Xalq cholg'ulari O'rta Osiyo aholisining turmushi va mehnat faoliyatiga singib, inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgani bizga ma'lum, bayramlar ko'proq yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. Bayramlarimizda, madaniy marosimlarda, karnay, doira, nog'ora, va urma zarbli turli musiqa cholg'ulari keng qo'llanilgan. Xalq raqslari aslida qosh o'ynash, yelka o'yini kabilarni o'z ichiga olgan. Ular qarsak jo'rligida ham ijro etilgan.

O'rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatidan biri shunda ediki, cholg'uchilar nafaqat bir necha turdagi musiqa asboblarini chala olgan, balki o'zlari xam musiqa bastalaganlar. Cholg'uchilar o'z davrining yetuk musiqachilari va shoirlari ham bo'lishgan, o'rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarini paydo bo'lishga olib keldi. Bu yerda ustoz-shogird an'nalari qaror topib rivojlandi. Ayni paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san'atining asosiy ko'rinishlari shakllanib cholg'u asboblarining yangi namunalari kashf etilishni ham uzoq -uzoqlarga borib taqaladi.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg'ularini o'rganish sohasida tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muxammad Farobiyning mashhur asari "Musiqqa xaqida katta kitob" ("Kitob al - musiqa al - kabr") ulkan ahamiyatga ega. O'rta asr olimi bu kitobda ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Farobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg'ularining jamiyat hayotidagi rolini o'rganishga ahamiyat berdi va "Jangu - jadallarda, raqslarda, to'y tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda ham qo'shiq kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor", deb yozilgan edi.

Farobiy shuningdek Nayni ham ta'riflaydi. U turli xil damli musiqa cholg'ularini ovoz hosil qilish prinsipiga ko'ra naysimonlar guruhiga kiritadi, ya'ni nayda havoning damli harakati orqali tovush hosil bo'ladi. Ulardan biri oddiy nay yoki bir yo'nalishda joylashgan ko'p teshikli naylar hozirgi kunda ham Sharq xalqlari orasida mavjud.

Olim ko'pincha o'rik yoki tut daraxtidan ishlanadigan keng tarqalgan surnay xaqida to'xtaladi.

Farobiy shuningdek, dunay (mizmar) ni ham tilga oladi. Dunay hozirgi qo'shnay yoki turkman xalq cholg'usi gosha - dilla tyuy byuk (kush qamish naychadan tuzilgan cholg'u) ga o'xshaydi.

Inson ovozi azaldan eng mukammal cholg'u hisoblangan. Torli mizrobli yoki torli-kamonli musiqa cholg'ulari ijrochilari hamisha o'zlari yaratgan kuylar

ohangini inson ovozigacha yaqinlashtirishga, bunda o'zgacha bir musiqiylikka erishishga, ohangni ta'sirliroq, samaraliroq, ravonroq chiqarishga intilishgan. Damli cholg'ular ichida risolada nay va surnay bo'lgan.

O'sha davrda Sharqning taniqli mutafakkiri Sayfiddin Urmaviy musiqa ilmi tizimi (sistemi)ni rivojlantirdi. U usta ud cholg'uchi, xonanda va mohir bastakor sifatida mashhur edi. Ud cholg'usida olib borgan tajribalariga tayanib olim o'z nazariy qoidalarini bayon etdi. Urmaviy "Taqvodorlik kitobi"da ud ta'rifi quyidagi so'zlar bilan boshlanadi. "Bilginki, cholg'u asboblari ichida ud deb ataluvchi tartibidagi 7 marta maqomi (ladi) bo'lgan.

Darvish Ali o'tmishdoshlari singari torli, mizrobli cholg'ular orasida tebranish ohangiga ko'ra eng yaxshisi sanalgan udni cholg'ular "shoxi" deb atadi. Udning juft sozlangan o'n ikki tori bo'lgan. U Forobiy davridagi dastlabki uddan birmuncha farq qilgan. Darvish Alining ma'lumotlariga qaraganda, oltinchi kuyi tor (muftalif) cholg'usining pastki diapazoni (bas registrni) kengaytirilgan.

Risolada yozilishicha chang cholg'ular xomiysi xisoblanadi. Ta'riflangan changning yetti maqom ijrosi uchun yigirma oltinchi ijrosi uchun yigirma olti tori va yetti pardasi bo'lgan. Nay qadimiy cholg'ularning biri sifatida tilga olinadi. Bulardin tashqari, risolada, qonun, rubob, qobiz, g'ijjak, musikor, enbonnay (damli, charmli), Xitoyda tarqalgan ruxavaz (olti tordan iborat noxunli) kabi cholg'ular ham tilga olingan.

G'ijjak cholg'uchi Shox kuli – G'ijjakiy shu musiqa asbobida ajoyib ijrochilik mahoratini ko'rsatgan va cholg'u kuylarini yaratgan usta san'atkor bo'lgan, uning yaratgan kuylari orasida muxammas ritmida yaratilgan peshravi "Xusayniy" alohida ajralib turadi.

Naychi Sulton Axmadni Darvish Ali mashhur cholg'uchi sifatida tilga oladi. Risola muallifining yozishicha, u chalgan nayning sehrli ohanglari musiqa san'ati ixlosmandlarida chuqur taassurot qoldirgan.

Ud cholg'uchi Sulton Muxammad Uddiy Samarqandiyini muallif noyob iste'dodli cholg'uchi, musiqiy asarlar ijodkori sifatida aks ettirgan.

Xalq cholg'ularining ko'zga ko'ringan ijrochilaridan biri Ali – Shunqor Dugoh ohanglari, Turk zarb ritmi yaratilgan asrlar bastakor sifatida tanilgan. Uning “sabti begumiy”. “Naqshi begumiy”, (bo'yoqdor ohangdor kuylar) ohanglari xalq orasida keng yoyilgan.

Najmiddin Kavkabiy va Darvish Ali risolalarida o'n ikki maqom (Raxoviy, Xusayniy, Zangula, Buzruk) asosida musiqa asarlari yaratilgan bastakorlar nomi tilga olinadi.

Ijrochilikda yetuk bo'lgan Mavlon Shaxsiy Tebes - Gileksiy ibn Abduraxmoniy Rumi (rud), Ustod - Zaytuniy G'ijjakiy, Xo'ja Maxmudbek Isohkiy Shexiniy (dutor) Sayid Axmad bin Mextariy Muzakkiy, Ustod Qurbon Sa'diy, Ustod Poyonda (surnay va nog'ora), Ustod - Amir Kuli Tanburiy (tanbur), Shayx Axmadiy Qobiziy (qobiz) musiqa nazariyasining katta bilimdoni, o'z davri musiqa san'ati vakillarining ilg'ori Amir Mastiy Xirotiy (qobiz), Yusuf Mavludniy dutori Xirotiy (dutor), Ustod Gulokiy Nayi Ustod - Abdusattor Qonuniy, Xofiz Boboy Qonuniy, Xofiz Turdiy Qonuniy va boshqa xalq cholg'u ijrochilari muhim o'rin tutganlar.

Darvish Ali o'sha zaminning buyuk xalq cholg'uchilari ijro etgan ko'p qismli, turkum musiqiy asarlar - maqomlarning katta ahamiyati haqida so'z yuritgan. O'rta asr Sharq olimlarining asarlarida musiqiy cholg'ular, ular yaratgan ma'naviy va madaniy muhit haqida tarixiy ma'lumotlar yetarli bayon qilingan, ammo ularda u yoki bu xalq cholg'ularining texnik badiiy imkoniyatlari haqida ma'lumot juda oz. Risolalarda ta'kidlanishicha, ijrochilar aynan o'ziga xos ijrochilik amaliyoti asosida musiqa nazariyasini ishlab chiqishgan va cholg'ularning mavjud shakllarini ta'riflashgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Toshmammedov M. “G'ijjak taronalari” T.; 1983 y.
1. Taxalov S. “Afg'on rubobini chalishga o'rgatish metodikasi” T.; 1983 y.
2. Akbarov I.A. “Muzika lug'ati” T.; 1987 y.
3. Azimov K.T. “Metodika raboty s samodeyelnym orkestrom uzbekskix

- народных instrumentov” T.; 1988 y.
4. Ne’matov R. “Davrim sadosi” T.; 1990 y.
 5. Tursunov R.T “Havaskorlik ashula va raqs ansambllari bilan ishlash usullari” T.; 1991 y.
 6. Abdurauf Fitrat. “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” T.; 1993 y.
 7. Qosimov R.Q. “Rubob navolari”. T.; 1993 y.
 8. Umarov A. “Tanbur navolari” T.; 1995 y.
 9. Nurmatov H. “O‘zbek xalq musiqasi” T.; 1996 y.
 10. Toshmatov O‘. “Navro‘z taronalari” T.; 1998 y.
 11. Toshmuhammedov M. “G‘ijjakda an’anaviy ijrochilikni o‘zlashtirish. T.; 1999 y.

12. Xolmirzaev, O. (2021). YoShLAR KAMOLOTI VA MUSIQA: YoShLAR KAMOLOTI VA MUSIQA. *Jurnal doshkolnogo obrazovaniya*, 3(3). izvlecheno ot <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2103>